

UDC: 34(043.5)(575.1

## NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDAGI AXBOROTNING TASNIFLANISHI VA TURLARI

**Sodiqov Akmal Shavkat o'g'li,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Davlat va huquq nazariyasi” kafedrası katta o'qituvchisi,  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0001-6453-1327

e-mail: akmalsodikov81@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotning tasniflanishi, turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot predmetini O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qo'llash amaliyoti hamda ilmiy-nazariy konseptual yondashuvlar va huquqiy kategoriyalar tashkil etadi. Tadqiqotning maqsadi norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotning tasniflanishini tadqiq etish orqali O'zbekiston Respublikasida norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish bo'yicha tegishli taklif, tavsiya va xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan. Mazkur tadqiqot ishi natijasida norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotni tasniflash metodikasi (uslubiyoti) ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, axborot tashuvining moddiyligi (moddiy va moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan), ifoda shakli (yozma, elektron va og'zaki), normativ xususiyati (huquqiy va huquqiy bo'lmagan), foydalanish erkinligi (ochiq, maxfiy va kirish imkoniyati cheklangan), taqdim etish tartibi (majburiy ravishda taqdim etiladigan va tavsiyaviy xarakterdagi), axborotning kelib chiqish manbasi (birlamchi, ikkilamchi va umumiy manbalardan kelib chiqadigan axborot) bo'yicha axborotni tasniflash hamda tizimlashtirish asoslab berildi. Tadqiqot natijalaridan ilmiy izlanishlar olib borish, normativ-huquqiy hujjatlarning tegishli normalarini sharhlash, milliy qonunchilikni takomillashtirish, Davlat va huquq nazariyasi, Norma ijodkorligi va Yuridik texnika o'quv modullaridan ta'lim berish hamda mazkur modullarni ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkin.

**Kalit so'zlar:** axborot, axborot turlari, norma ijodkorligi, norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash, huquqiy axborot, huquqiy bo'lmagan axborot, axborotni tasniflash metodikasi.

### КЛАССИФИКАЦИЯ И ВИДЫ ИНФОРМАЦИИ В НОРМОТВОРЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

**Содиков Акмал Шавкат угли,**

доктор философии по юридическим наукам (PhD),

старший преподаватель кафедры «Теория государства и права»

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье проводится анализ классификации, видов и характеристик информации, используемой в нормотворческом процессе. Предметом исследования являются нормативные правовые акты по нормотворчеству в Республике Узбекистан, правоприменительная практика, а также научно-теоретические концептуальные подходы и правовые категории. Целью исследования является разработка соответствующих предложений, рекомендаций и выводов по повышению эффективности информационного обеспечения нормотворческого процесса в Республике Узбекистан. В исследовании применялись такие методы, как историче-

ский, системно-структурный, логический, индукционный, сравнительно-правовой, комплексное изучение научных источников и анализ статистических данных. В результате исследования была разработана методика классификации информации, используемой в нормотворческом процессе. Разработаны классификационные критерии, такие как материальность передачи информации (материальная и нематериальная), форма выражения (письменная, электронная и устная), нормативность (правовая и неправовая), свобода использования (открытая, конфиденциальная и ограниченного доступа), порядок представления (обязательный и необязательный), сведения об источнике информации (сведения из первичных, вторичных и общих источников). Результаты исследования могут быть использованы для проведения исследований, толкования соответствующих нормативно-правовых актов, совершенствования национально-го законодательства, преподавания, а также для дальнейшего научного обогащения таких модулей, как «Теория государства и права», «Нормотворчество» и «Юридическая техника».

**Ключевые слова:** информация, виды информации, нормотворчество, информационное обеспечение нормотворчества, правовая информация, неправовая информация, методика классификации информации.

## THE CLASSIFICATION AND TYPES OF INFORMATION IN THE RULE-MAKING PROCESS

**Sodikov Akmal Shavkat ugli,**

Tashkent State University of Law, Senior Lecturer of the Department of  
Theory of State and Law, Doctor of Philosophy in Law

**Abstract.** This article analyzes the classification, types and characteristics of information used in the rule-making process. The subject matter of the research is the normative legal acts on the rule-making in the Republic of Uzbekistan, law enforcement practice, as well as scientific-theoretical conceptual approaches and legal categories. The purpose of the study is to develop appropriate proposals, recommendations and conclusions to improve the efficiency of informational support of the rule-making process of in the Republic of Uzbekistan. The methods such as historical, systematic-structural, logical, induction, deduction, comparative-legal, complex study of scientific sources and analysis of statistical data were applied in the research. As a result of this research, a methodics of classifying information used in the rule-making process was developed. According to it, the classification criterias such as the materiality of information transmission (tangible and intangible), form of expression (written, electronic and verbal), normative nature (legal and non-legal), freedom of use (open, confidential and limited access), the order of presentation (mandatory and recommended), information on the source of information (information from primary, secondary and general sources) were developed. The results of the research can be used to conduct research, interpret relevant regulations, improve national legislation, teach, as well as to further enrich scientific modules as Theory of state and law, Rule-making and Legal writing.

**Keywords:** information, types of information, rule-making, informational support of rule-making, legal information, non-legal information, methodics of information classification.

### Kirish

Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot turlarini ilmiy nuqtai nazardan tasniflash hamda ularni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, bunday kompleks ilmiy tadqiqot olib borilmagan hamda ushbu masala norma ijodkorligi jarayonini bevosita tartibga soluvchi asosiy milliy

qonunchilik hujjatlarida ham e'tibordan chetda qolganini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash samaradorligini oshirish masalasi Harakatlar strategiyasida belgilangan davlat va jamiyat qurilishi tizimini rivojlantirish hamda Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyas-

ining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tegishli vazifalarni hal qilish, ushbu sohada qonunchilikning ta'sirchanligini oshirishni talab etmoqda. Mazkur sohada ko'plab islohotlar amalga oshirilayotganiga qaramasdan, mamlakatimiz Jahon Bankining Buntunjahon boshqaruv ko'rsatkichlari (World Governance Indicators) loyihasining Qonunchilik sifati yo'nalishida eng so'nggi (100 balli tizimda 2019-yil 12.98, 2020-yil 15.38 reyting bali) [1] o'rinlardan joy olib kelmoqda. Albatta, bu holat norma ijodkorligining nazariy-huquqiy jihatlarini o'rganish, normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshirish, ularning amaliyotda samarali qo'llanilishi uchun loyihani ishlab chiqish bosqichida ilmiy asoslangan, ishonchli, xolis, tahliliy hamda haqqoniy axborot bilan ta'minlanganlik darajasini tadqiq etishni talab etmoqda.

Tabiiyki, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot turlarini tahlil etish, o'z navbatida, axborotni tasniflash, muayyan mezonlar asosida turlarga ajratish nazariy-huquqiy jihatdan axborotni tegishli kategoriyalarga ajratishga zamin yaratib beradi. Mazkur ilmiy maqolada axborot, norma ijodkorligini axborot bilan ta'minlash, huquqiy axborot, huquqiy bo'lmagan axborot kabi tushunchalar yuridik ilm-fanda yetarlicha tadqiq etilmaganligi muammosi ko'tariladi. Shuningdek, nafaqat norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot, balki umumiy ma'noda axborotni tasniflash mezonlari yuzasidan turli qarashlar yagona ilmiy xulosaga kelishga to'sqinlik qilish muammasi tahlil etilib, muayyan mezonlar asosida norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotni tasniflash bo'yicha mualliflik metodikasi ishlab chiqilishi joriy nazariy-huquqiy muammoning yechimi bo'lishi taklif etiladi.

### **Material va metodlar**

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, mantiqiy, induksiya, deduksiya, qiyosiy-huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish va statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot obyekti O'zbekiston Respublikasi norma ijodkorligi jarayonini axborot bilan ta'minlash borasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishi natijasida norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotni tasniflash metodikasi (uslubiyoti) ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqot natijalari**

Milliy huquqshunos olimlarning tadqiqotlarini tahlil etadigan bo'lsak, X.S. Hayitov ilmiy tadqiqot ishida axborotning rasmiy va norasmiy turlarini keltirib o'tadi [2, 296-b.]. Biroq olim tomonidan ularning qaysi mezon asosida ajratilganligi masalasi ochiq qolganligi ilmiy bahs keltirib chiqaradi. Albatta, nazariy jihatdan har qanday tasniflash o'z mezoniga ega bo'lmas ekan, uning ilmiy asoslantirilganligiga shubha paydo bo'ladi.

Bunday holat xorijiy olimlarning tadqiqotlarida ham kuzatiladi. Xususan, I.Y. Pavlov axborotlarning quyidagi turlarini belgilashni ilgari suradi: "huquqiy axborot, hukumat organlari to'g'risidagi umumiy axborot, normativ-texnik, ilmiy, sanitariya-epidemiologiya, ekologik, ijtimoiy, statistik, moliyaviy va iqtisodiy kabi turlari tavsifi keltiriladi" [3, 12-b.].

E.A. Kretova huquqiy ma'lumotlarni normativ xarakterga ega va normativ xarakterga ega bo'lmagan axborot turlariga bo'lish orqali tasniflash [4, 108-b.], G.I. Shramm va A.V. Kostrubalar axborotni biologik va sotsial turlarga ajratish [5, 129-b.], Ye.V. Skurko norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotni huquqiy va ijtimoiy-huquqiy axborotga tasniflashni taklif etadi [6, 27-b.].

Ammo yuqorida qayd etilgan olimlarning monografik tadqiqotlarida ham axborotni muayyan turlarga ajratish mezonlari ko'rsatib berilmaganligi to'laqonli to'g'ri ilmiy yo'nalish olishga to'sqinlik qiladi.

Boshqa ko'plab olimlar, o'z navbatida, axborot xavfsizligi, axborotdan erkin foydalanish darajasidan kelib chiqib, axborotni tasniflash metodikasini taklif etishgan. Jumladan, A.B. Si-  
zonenkoning fikricha, axborotni kirish imkoni-

yatiga ko'ra (ochiq va cheklangan), tarqatish tartibiga ko'ra (erkin tarqatiladigan, shaxslarning roziligi asosida tarqatiladigan, tarqatish taqiqlangan, tarqatishga ruxsat beriladigan) turlarga ajratishni taklif etadi [7, 92-b.].

K. Zauervayn, I. Pekarika, M. Felderera va R. Breular esa axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan axborotni 6 turga ajratishgan (nozik, xavf ostidagi, qarshi chora-tadbir axborotlari, hujumga uchraydigan, risk ostidagi va ishonchli) [8, 14-b.].

A.P. Kuznesov, S.M. Parshin [9, 152-b.], N.V. Yurasyuk [10, 179-b.], S.G. Chubukova [11, 101-105-b.] va V.D. Elkinlar tomonidan axborotdan foydalanish erkinligi nuqtai nazaridan uning maxfiy turi alohida ta'kidlanadi [12, 13-b.]. Shu tufayli norma ijodkorligi jarayonida ham maxfiy axborotning o'rnini nazardan chetda qoldirib bo'lmaydi. Shuning uchun ham norma ijodkorligidagi axborotni foydalanish erkinligiga ko'ra ochiq va maxfiy axborotlarga ajratish mumkin.

Fikrimizcha, axborot xavfsizligi, axborotdan erkin foydalanish darajasiga ko'ra axborotni tasniflash muayyan ma'noda axborotning funksiya va ta'sir etish yo'nalishlarini cheklab qo'yadi. Shuningdek, norma ijodkorligida foydalaniladigan axborot turlarini tahlil etish keng qamrovli ilmiy yondashuvga asoslanishga to'sqinlik qiladi.

Boshqa olimlar guruhi tomonidan esa axborotni tasniflashda muayyan mezonlardan foydalanilganligini kuzatish mumkin. Jumladan, X.T. Mamatov axborotni turlarga ajratishda uch mezon: a) huquq tizimidagi rolga qarab (huquqiy va huquqiy bo'lmagan); b) foydalanish imkoniyatiga qarab (ochiq va cheklangan); d) yetkazuvchi obyektga ko'ra (hujjatlashtirilgan va hujjatlashtirilmagan) tasniflab beradi [13, 32-b.]. S.A. Kulikova axborotlarni huquq tizimidagi rolga ko'ra, huquqiy va huquqiy bo'lmagan axborotga ajratish taklifini ilgari suradi [14, 13-b.].

Olimlarning fikrlarini qo'llab-quvvatlash mumkin, biroq axborotni huquq tizimidagi rolga qarab (huquqiy va huquqiy bo'lma-

gan) turlarga ajratish ilmiy bahsni keltirib chiqaradi. Zero, huquq tizimi huquq normasi, huquq instituti va huquq sohalarini qamrab olishi, huquqiy bo'lmagan axborot tarkibiy element sifatida e'tirof etilmasligi yuridik ilm-fanda allaqachon asoslantirilgan.

Shu o'rinda xorijiy huquqshunos olimlarning tahlillariga diqqat qaratadigan bo'lsak, A.A. Chebotarevaning fikricha, axborotni tasniflashning ko'plab mezonlari bo'lib: 1) tashkiliy darajasiga (tartibiga) ko'ra (hujjatlashtirilgan va hujjatlashtirilmagan yoki tizimlashtirilgan (kataloglar, ensiklopediyalar, sarlavhalar va boshqalar) va tizimlashtirilmagan); 2) yetkazish vositasiga ko'ra (qog'oz, video, audio, kompyuter ma'lumotlari, og'zaki v.b.); 3) kirish imkoniyatiga ko'ra (kirish imkoniyati cheklangan ma'lumotlar, intellektual mulk obyektlari, tarqatishda cheklovlar mavjud bo'lgan "zararli ma'lumotlar", ochiq ma'lumotlar); 4) funksional maqsadiga ko'ra (ommaviy ma'lumotlar, OAV orqali tarqatiladigan ma'lumotlar, sohaviy v.b.) turlarga ajratiladi [15, 12-b.].

Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari boshqa tadqiqotlarda qayd etilgan fikr-mulohazalarga nisbatan batafsil ko'rinishiga qaramasdan, aynan norma ijodkorligida foydalaniladigan axborot turlari bo'yicha kompleks tadqiqot sifatida e'tibor qaratilmaganligi hamda axborotga ijtimoiy kategoriya sifatida urg'u berilganligini kuzatish mumkin.

Bevosita norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot turlari yuzasidan ilg'or xorij tajribasi bo'yicha AQSh huquqiy amaliyotiga to'xtalib o'tib, bunday axborotni tasniflashning qisqa va sodda tasnifi ishlab chiqilganligiga guvoh bo'lish mumkin. AQShda 2003-yildayoq "Axborot sifati to'g'risida"gi (Information Quality Act) Qonun qabul qilingan bo'lib, u asosida Boshqarish va budget idorasi (Office of Management and Budget) tomonidan yo'riqnoma ishlab chiqilgan. Unda norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot "ta'sir kuchiga" ko'ra "oddiy" ("ordinary") va "ta'sirchan" ("influ-



ential”) turlarga ajratiladi. “Oddiy” axborot norma ijodkorligida yuqori darajada ahamiyatga ega emasligi nazarda tutilsa [16, 2-b.], “ta’sirchan” axborot davlat siyosatiga aniq va sezilarli ta’sir ko’rsatadigan, ilmiy, moliyaviy yoki statistik ma’lumotlar hisoblanadi.

Fikrimizcha, bunda ikki axborot turining ta’sir etish mezonini o’rtasidagi chegarani aniqlash subyektiv omillar asosida amalga oshirilishi ham to’liq ilmiy asoslantirilgan xulosaga kelishimizga to’sqinlik qiladi.

Norvegiya [17, 26-b.], Shvetsiya [18, 170-b.], Finlandiya, Kanada, Yangi Zelandiya qonunchiligida [19, 202-b.] norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot maxfiy va ochiq turlarga ajratiladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy isbotlash metodlari asosida norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotni tasniflash metodikasining (uslubiyoti) mezonlarini quyidagicha tavsiflash mumkin: axborot tashuvining moddiyligi, ifoda shakli bo’yicha, normativ xususiyati, foydalanish erkinligi, taqdim etish tartibi, axborotning kelib chiqish manbasiga ko’ra.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Huquqshunos olimlarning ilmiy ishlari hamda xorijiy mamlakatlarning sinovdan o’tgan tajribasini tahlil etish orqali norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotni tasniflash mezonlari va turlarini quyidagilar asosida tasniflashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1) *axborot tashuvining moddiyligi bo’yicha:*

a) moddiy ko’rinishga ega bo’lgan; b) moddiy ko’rinishga ega bo’lmagan;

2) *ifoda shakli bo’yicha:* a) yozma; b) elektron; d) og’zaki;

3) *normativ xususiyatiga ko’ra:* a) huquqiy; b) huquqiy bo’lmagan;

4) *foydalanish erkinligiga ko’ra:* a) ochiq; b) maxfiy; d) kirish imkoniyati cheklangan axborot;

5) *taqdim etish tartibiga ko’ra:* a) majburiy ravishda taqdim etiladigan; b) tavsiyaviy xarakterdagi ma’lumotlar;

6) *axborotning kelib chiqish manbasiga ko’ra:* a) birlamchi; b) ikkilamchi; c) umumiy manbalardan kelib chiqadigan axborot.

Albatta, axborot turlari va tasniflash mezonlarini davom ettirish mumkin. Ammo aynan norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot nuqtai nazaridan yuqorida qayd etilgan tasniflash yetarli ekanligini kuzatish mumkin. Shuningdek, fikrimizcha, axborotning turlari ko’pligi sababli mazkur ilmiy tadqiqot ishi predmeti va hajmini inobatga olgan holda, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotning normativ xususiyatiga ko’ra (huquqiy va huquqiy bo’lmagan) turlarini alohida muhokama qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Avvalo, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy axborot tushunchasiga to’xtalib o’tamiz. Manbalarda axborot tushunchasiga berilgan ko’plab ta’riflar uchrasada, huquqiy axborot tushunchasi ko’plab olimlarning tadqiqot predmetidan chetda qolgan.

Ilmiy adabiyotlarda huquqiy axborot tushunchasi to’g’risida ko’plab ma’lumotlarni uchratish mumkin. Ammo bu borada ishlab chiqilgan yakdil yondashuvning mavjud emasligi masalaning murakkabligidan dalolat beradi. F. Shauer hamda V.Vayslarning fikricha, huquqiy axborotning hayratlanarli xususiyati shundaki, unga rasmiy ta’riflar kam [20, 495-b.].

Milliy huquqshunos olimlardan X.T. Mamatov [21, 15-20-b.], Z.M. Islomov huquqiy axborot aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda katta hissa qo’shishi [22, 916-b.], M.K. Najimov huquqiy axborotni to’plash, saqlash, qayta ishlash va tarqatish borasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish lozimligi [23, 181-b.], B.T. Mirzaraimov huquqiy axborotni huquqiy ongning ajralmas qismi ekanligi [24, 93-b.], P.A. Rustamov huquqiy axborotni umummajburiy, tizimli va ierarxik xususiyatlarga ega bo’lishini qayd etishadi [25, 104-b.].

Mazkur huquqshunos olimlarning fikrlariga e'tiborimizni qaratib, aytish mumkin, P.A. Rustamovdan tashqari boshqa barcha olimlar huquqiy axborotning huquqiy ongni yuksaltirishdagi o'rnidan kelib chiqib fikr bildirishgan. Bu esa, o'z navbatida, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy axborotni batafsil ilmiy tahlil etishni taqozo etadi.

Bunday holat xorijiy mamlakatlar huquqshunos olimlarining monografik tadqiqotlarida ham uchrab turadi. Xususan, B. Brinko [26, 35-40-b.], R.K. Bxardvad [27, 137-150-b.] va M. Madxusudxanlar [28, 314-319-b.] ham huquqiy axborot tushunchasiga fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqini ta'minlash nuqtai nazaridan yondashganligi, o'z navbatida, huquqiy axborotdan norma ijodkorligida foydalanishga to'g'ri kelmasligini ta'kidlash qiyin emas.

R.F. Azizov esa huquqiy axborotning xususiyatlarini tahlil etishda epistemologik, antologik, aksiologik yondashuvlarni inobatga olish zarurligi [29, 32-b.], A.S. Proskurinining fikricha, huquqiy axborot keng tushuncha bo'lganligi uchun unga kibernetik va sinergetik jihatdan yondashishni ta'kidlashadi [30, 51-b.].

S.A. Kulikova huquqiy axborot huquqiy faoliyat natijasida vujudga kelishi hamda normativ va normativ bo'lmagan turlarga bo'linishini bildirib o'tadi [31, 13-b.].

AQShlik olim R.Richardsning fikricha, huquqiy axborot mazmunli shaklga keltirilgan, rasmiy, neytral, huquqni ifodalovchi kabi xususiyatlarga ega bo'lishi zarur [32, 9-10-b.].

Shu o'rinda qomusiy adabiyotlar va milliy qonunchilik hujjatlariga e'tibor berib o'tamiz. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi H harfi qismida "huquqiy davlat", "huquqiy yordam" kabi tushunchalarga ta'rif berilgan bo'lsa-da [33, 247-b.], huquqiy axborot tushunchasiga to'xtalib o'tilmagan.

"Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-mod-

dasida huquqiy axborot tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "huquqiy axborot – normativ-huquqiy hujjatlarning, ularga oid rasmiy sharhlarning, normativ-huquqiy hujjatlarning qo'llanilish tartibi to'g'risidagi tushuntirishlarning, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qonun hujjatlari qo'llanilishi masalalari bo'yicha qarorlarining matnlari, shuningdek, sud amaliyotini umumlashtirish materiallaridir".

Nazarimizda, huquqiy axborotni normativ-huquqiy hujjatlar bilan cheklash uning tor ma'nodagi ta'rifini keltirib chiqarish uchun asos bo'lishi mumkin. Vaholanki, normativ-huquqiy hujjatlar asosida va ularning ijrosi yuzasidan qabul qilingan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqni qo'llash amaliyoti hujjatlarini ham huquqiy axborot sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida aks ettirilgan ma'lumotlardan norma ijodkorligi jarayonida foydalanish masalasi ham huquqiy axborotdan foydalanish sifatida qaralishi lozim. Ammo mazkur Qonunda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqni qo'llash amaliyoti, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida aks ettirilgan ma'lumotlar nazardan chetda qolgan.

Albatta, huquqiy axborotning ahamiyati yuqori ekanligini inkor etib bo'lmaydi, biroq yuridik ilmda huquqiy axborotga turlicha ta'riflarning ishlab chiqilganligi huquqshunos olimlar hamda tadqiqotchilar o'rtasida yakdillikni keltirib chiqarishga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu tufayli, fikrimizcha, mazkur tushunchani yagona ta'rif asosida uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy axborot manbalariga O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi], Mahal-

liy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron tizimidan tashqari "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin, jumladan, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari tayyorlash rejasi (19-modda), normativ-huquqiy hujjat loyihasi (21-modda), xalqaro hujjatlar va chet el mamlakatlari qonunchiligining, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining tegishli qoidalari, O'zbekiston Respublikasi sharoitida tegishli xalqaro tajriba bo'yicha tahliliy-qiyosiy jadval (23-modda) va boshqalarni keltirib o'tish joiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, norma ijodkorligida foydalaniladigan huquqiy axborot tushunchalariga mualliflik ta'rifini quyidagicha keltirishni joiz deb bildik: "Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy axborot – bu normativ-huquqiy hujjat loyihasi yoki axborot-tahliliy materiallarda aks ettiriladigan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, normativ-huquqiy hujjatlar va ularga oid rasmiy sharhlar, tushuntirishlar, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha tizimlashtirilgan ma'lumotlardir".

Shu o'rinda norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy bo'lmagan axborotlarga keladigan bo'lsak, bunday axborot o'zining xilma-xil turlarga egaligi hamda milliy ilmiy tadqiqotlarda kompleks tahlil etilmaganligi kuzatiladi.

AQSh va Yevropa mamlakatlari norma ijodkorligi amaliyotida huquqiy bo'lmagan axborotga alohida tasnif sifatida yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Bu borada ko'pchilik xorijiy olimlarning yondashuvlariga ko'ra, huquqiy bo'lmagan axborot ("non-legal information") emas, balki "nohuquqiy axborot" yoki "noqonuniy axborot" (illegal information) nuqtai nazaridan yondashish sabab

bo'lishi mumkin. Xususan, D. Finan [34, 761-782-b.], V. Vud, Marte va J. Brauerlar turli huquq sohalaridagi noqonuniy axborotga to'xtalib o'tishgan [35, 157-179-b.].

Bizning fikrimizcha, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy bo'lmagan axborot va yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy qarashlari bir-biriga zid. Bu esa, o'z navbatida, norma ijodkorligi jarayoni va boshqa huquq sohalarida aks ettirilgan tushunchalarning o'zaro qarama-qarshiligiga olib keladi.

Bu borada mazmunan muvofiq keluvchi yondashuvlarni MDH mamlakatlari olimlarining ishlarida uchratish mumkin. Jumladan, Ye.V. Skurko [36, 27-b.], S.A. Kulikovalar huquqiy bo'lmagan axborot huquqiy faoliyat natijasida emas, balki jamiyatdagi munosabatlar natijasida vujudga kelishini ta'kidlab o'tishadi [37, 13-b.].

Fikrimizcha, huquqiy bo'lmagan axborot, albatta, keng qamrovli bo'lib, unga huquqiy axborotdan tashqari barcha ma'lumotlar yig'indisini kiritishimiz mumkin. Shu sababli huquqiy bo'lmagan axborotlarga sotsiologik, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, ekspert-tahlil, ilmiy, tartibga solish ta'sirini baholashga oid va boshqa axborotlarni keltirib o'tish o'rinli.

Norma ijodkorligi jarayonida turli xil huquqiy bo'lmagan axborotlardan foydalaniladi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarda bayon etilgan fikrlar, blogerlarning "postlari" sotsiologik axborot bo'lib, bu borada olimlar ko'plab fikrlarni bildirib o'tishgan.

Sharl de Monteskyo qirolning saroyidagi axborotdan ko'ra, oddiy xalq "ichidagi" ma'lumotlar haqiqatga yaqinroq ekanligi [38, 26-b.], Z.M. Islomov aholining munosabati to'g'risidagi axborotlar norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish uchun nihoyatda zarurligi [39, 137-b.], A.Q. Xudoyberdiyev [40, 258-b.], J. Sala va A. Fransisko ijtimoiy tarmoqlar orqali sotsiologik axborot to'plash lozimligini qayd etib o'tishgan [41, 336-346-b.].

Albatta, norma ijodkorligi jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan sotsiologik axborot manbalariga Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali, Jamoatchilik tashabbuslari yagona platformasi, OAV orqali bildirilgan fikr-mulohazalar va boshqa jamoatchilik muhokamasi natijalari kiradi.

Bundan tashqari, bu borada ko'p uchraydigan huquqiy bo'lmagan axborot bu statistik axborot bo'lib, M.K. Najimov [42, 40-b.], Sh.A. Saydullayev [43, 163-b.], Sh.H. Fayziyev [44, 55-b.] va I.V. Kudryavsevlar [45, 21-b.] bunday axborotni olish norma ijodkorligi subyektlarining asosiy huquqlaridan biri ekanligini qayd etib o'tishadi.

Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan statistik ma'lumotlar "faqat O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etiladi" degan fikrdan yiroqmiz. Zero, bunday ma'lumotlar har qanday subyekt nafaqat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organlar, mansabdorlar shaxslar, balki mutaxassis, ekspertlar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ham taqdim etilishi mumkinligini unutmaslik zarur.

Norma ijodkorligi jarayonida boshqa huquqiy bo'lmagan axborot turlaridan ham foydalanish mumkin. Jumladan, P.N. Pavlov iqtisodiy axborot [46, 39-70-b.], A.Singx moliyaviy axborot [47, 85-b.], S.Brink kelishishga oid ma'lumotlar [48, 432-442-b.] (Shvet-siya Konstitutsiyasi 7-bobi 2-bandini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Bunday axborotlarning manbasi sifatida moddiy xarajatlar talab qilinadigan normativ-huquqiy hujjat loyihalari uchun moliyaviy-iqtisodiy asoslar, davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini ko'paytirish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti moddalarini bo'yicha o'zgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosalarini keltirib o'tish mumkin.

Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan ilmiy axborotga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, mazkur masalaga milliy huquqshunos olimlarning monografik tadqiqotlarida to'xtalib o'tilganligini kuzatish mumkin.

Q.Q. Abdullayev [49, 55-b.], Sh.N. Berdiyarov [50, 24-b.], I.T. Tulteyev [51, 178-b.], O.Z. Shodiqulov [52, 24-b.], X.S. Hayitov [53, 298-b.] va P.A. Rustamovlar [54, 149-b.] norma ijodkorligi ilmiy nuqtai nazardan asoslantirilishi zarurligini yoqlab chiqishadi.

Shu bilan birga, norma ijodkorligi jarayonida konferensiya, seminar, ilmiy-amaliy davra suhbatlari materiallari, normativ-huquqiy hujjat loyihasi bo'yicha taqriz, hisobotlar, ekspert-tahlil ma'lumotlar, huquqiy, ilmiy va boshqa ekspertiza xulosalari, tadqiqotchilarning ilmiy ishlari, monografik tadqiqot (ilmiy maqola, dissertatsiyalar va boshqalar) natijalariga ilmiy axborot manbasi sifatida qarash mumkin.

Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy bo'lmagan axborot tushunchasi va uning turlari ilmiy adabiyotlarda kompleks o'rganilmaganligi hamda uning ayrim xususiyatlarigina tadqiq etilganligi sababli yuqorida qayd etilgan huquqshunos olimlarning ilmiy fikr-mulohazalari asosida mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq deb topildi: "norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy bo'lmagan axborot – normativ-huquqiy hujjat loyihasi yoki axborot-tahliliy materiallarda aks ettiriladigan sotsiologik, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, ekspert-tahlil, ilmiy va boshqa shu kabi normativ yoki huquqni qo'llash xususiyatiga ega bo'lmagan ma'lumotlar tizimi hisoblanadi".

Demak, huquqiy bo'lmagan axborot turlariga, albatta, normativ bo'lmagan va huquqni qo'llash amaliyotidan tashqari bo'lgan axborot-tahliliy materiallarni kiritish maqsadga muvofiq. O'z navbatida, yuqoridagi ta'rifdan kelib chiqib, huquqiy bo'lmagan axborotni taqdim etuvchi subyektga ko'ra



uch turga ajratish mumkin: 1) mutaxassis muhokamasi va xulosalarida aks etgan ma'lumotlar; 2) ekspertlik xulosalarida aks etgan ma'lumotlar; 3) boshqa subyektlar (jismoniy va yuridik shaxslar) tomonidan berilgan ma'lumotlar.

### **Xulosalar**

Norma ijodkorligi jarayonining tarkibi, unda foydalaniladigan axborot, huquqiy va huquqiy bo'lmagan axborot hamda boshqa shu kabi tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi. Birinchidan, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy axborot – bu normativ-huquqiy hujjat loyihasi yoki axborot-tahliliy materiallarda aks ettiriladigan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, normativ-huquqiy hujjatlar va ularga oid rasmiy sharhlar, tushuntirishlar, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning huquqni qo'llash amaliyoti bo'yicha tizimlashtirilgan ma'lumotlardir.

Ikkinchidan, norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan huquqiy bo'lmagan axborot – normativ-huquqiy hujjat loyihasi yoki axborot-tahliliy materiallarda aks ettiriladigan sotsiologik, statistik, iqtisodiy, moliyaviy, ekspert-tahlil, ilmiy va boshqa shu kabi normativ yoki huquqni qo'llash xususiyatiga ega bo'lmagan ma'lumotlar tizimi hisoblanadi.

Uchinchidan, mamlakatimizda norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborotga qo'yilgan talablarning tizimlashtirilmaganligi, tasniflanmaganligi norma ijodkorligini axborotlashtirishga salbiy ta'sir qilishi, bu olimlarning huquqiy ma'lumotlar hajmini

turli xil talqin qilishlariga, yakdil nazariy qarashlarning mavjud bo'lmashligiga, normativ-huquqiy hujjat loyihalari va ularga ilova qilinadigan axborot tahlil materiallarida keltirilgan ma'lumotlarga qo'yilgan talablarning mavhumligicha qolishiga sabab bo'lishi asoslantirildi. Norma ijodkorligi jarayonida foydalaniladigan axborot turlarini tegishli mezonlar asosida tasniflash metodikasi ishlab chiqildi. Jumladan, axborot tashuvining moddiyligi bo'yicha (moddiy ko'rinishga ega bo'lgan, moddiy ko'rinishga ega bo'lmagan), ifoda shakli bo'yicha (yozma, elektron, og'zaki), normativ xususiyatiga ko'ra (huquqiy, huquqiy bo'lmagan), foydalanish erkinligiga ko'ra (ochiq, maxfiy, kirish imkoniyati cheklangan axborot), taqdim etish tartibiga ko'ra (majburiy ravishda taqdim etiladigan, tavsiyaviy xarakterdagi ma'lumotlar), axborotning kelib chiqish manbasiga ko'ra (birlamchi, ikkilamchi, umumiy manbalardan kelib chiqadigan axborot).

Ta'kidlash joizki, norma ijodkorligini normativ xususiyatiga ko'ra huquqiy va huquqiy bo'lmagan turlarga ajratish, o'z navbatida, normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo'lgan organ va mansabdor shaxslar uchun taqdim etilayotgan axborotning sifatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi, samarali qarorlar qabul qilish uchun turtki vazifasini bajarishi mumkin. Zero, axborot turlarini tasniflash, ularning mohiyatini nazariy-huquqiy tushunib yetish axborot bilan ta'minlash sifatini oshirish, norma ijodkorligi jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar o'rtasidagi qayta aloqa samaradorligiga zamin yaratadi.

## **REFERENCE**

1. The Worldwide Governance Indicators (WGI) project. Available at: <https://info.worldbank.org/governance/wgi/>.
2. Hayitov X.S. Qonun ijodkorligida ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improving the organizational and legal framework for legislative expertise]. Doctor's degree dissertation. 12.00.02. Tashkent, DBA, 2018, p. 298.

3. Pavlov I.Y. Dostup k informatsii v Rossiyskoy Federatsii [Access to information in the Russian Federation]. St. Petersburg, Institute for the Development of Freedom of Information, 2010, pp. 1-12.
4. Kretova Y.A. K voprosu ob informatsii kak obyekt publichnogo prava [On the issue of information as an object of public law]. *Law and politics*, 2007, no. 11, pp. 107-109.
5. Schramm H.J., Kostruba A.V. Legal classification of types of information about an individual. *Journal of the National Academy of Legal Sciences of Ukraine*, 2019. Vol. 26. – No. 1. – pp. 123-132.
6. Skurko Y.V. Informatsionno-pravovoe obespechenie zakonodatel'noy deyatel'nosti v Rossiyskoy Federatsii [Information and legal support of legislative activity in the Russian Federation]. Abstract of PhD thesis. 12.00.01. Moscow, 2002, p. 24.
7. Sizonenko A.B. Klassifikatsiya informatsii ogranichenogo dostupa v sootvetstvii s zakonodatel'stvom Rossiyskoy Federatsii [Classification of restricted access information in accordance with the legislation of the Russian Federation]. *Bulletin of the KRU of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2010, no. 4, pp. 91-96.
8. Sauerwein C., Pekarica I., Felderera M., Breu R. An analysis and classification of public information security data sources used in research and practice. *Computers & Security*, 2018, no. 82, pp. 1-40.
9. Kuznesov A.P., Parshin S.M. Informatsiya i yeyo vidi: teoreticheskiy analiz [Information and its types: theoretical analysis]. *Problems of Economics and Legal Practice*, 2007, no. 2, p. 152.
10. Yurasyuk N.V. Nekotorie aspekti pravovogo regulirovaniya informatsii s ogranichenim dostupom [Some aspects of legal regulation of information with limited access]. Kaliningrad, KGTU Publ., 2011, p. 179.
11. Chubukova S.G. Teoreticheskie problemi sistemi sub'ektov informatsionnogo prava [Theoretical problems of the system of subjects of information law]. *Law and State: Theory and Practice*, 2018, no. 12 (168), pp. 101-105.
12. Elkin V.D., Chubukova S.G. Osnovi pravovoy informatiki [Fundamentals of legal informatics]. Moscow, Kontrakt Publ., 2007, p. 187.
13. Mamatov X.T. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari [Constitutional legal framework for the exercise of citizens' right to information in the Republic of Uzbekistan]. Doctor's degree dissertation 12.00.02. Tashkent, SamSU, 2009, p. 164.
14. Kulikova S.A. Informatsionnoe pravo Rossii [Information Law of Russia]. Saratov, Saratov University Publ., 2010, p. 196.
15. Chebotareva A.A. Informatsionnoe pravo [Information law]. Moscow, Law Institute of MIIT, 2014, p. 160.
16. Campbell P.C. The information quality act. Washington, Bergeson LLP, 2003, p. 2. Available at: [https://www.lawbc.com/other\\_pdfs/iqai-overview.pdf/](https://www.lawbc.com/other_pdfs/iqai-overview.pdf/).
17. The Norwegian parliament rules of procedure and the constitution. Stortinget. *The Storting's Administration*, 2020, p. 26.
18. Jonason P., Rosengren A. The right of access to information and the right to privacy a democratic balancing act. *Working paper*, Stockholm, Södertörn University, 2017, no.2, p. 170.
19. Riekkinen M., Suksi M. Access to information and documents as a human right. Abo, Finland, Institute for Human Rights of Abo Academy University, 2015, p. 202.
20. Schauer F., Wise V.J. Nonlegal information and the delegalization of law. *Legal Stud.*, 2000, pp. 494-499.
21. Mamatov X.T. Qonun hujjatlarini ijrochilar va aholiga yetkazish mexanizmlarini takomillashtirish [Improving the mechanisms of delivery of legislation to executors and the public]. *Yurist axborotnomasi – Lawyer Newsletter*, Lawyers training center under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, 2020, no. 2 (1), pp. 15-20.
22. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat, 2007, p. 916.

23. Najimov M.K. Norma ijodkorligi [Rule-making]. Tashkent, TSUL, 2018, p. 181.
24. Mirzaraimov B.T. Fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirishda huquqiy axborotning o'рни [The role of legal information in shaping the legal mind and culture of citizens]. Tashkent, TSIL, 2008, p. 60.
25. Rustamov P.A. Nauchno-informatsionnoe obespechenie zakonodatelnoy deyatelnosti v Respublike Uzbekistan [Scientific and information support of legislative activity in the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. 12.00.01. Tashkent, TSIL, 2001, p. 149.
26. Brynko B. Westlaw next: keeping pace with legal pros. *Information Today*, 2011, no. 28 (6), pp. 35-40.
27. Bhardwaj R.K. Online legal information systems in India: a case study from the faculty of Law. *Legal Information Management*, Delhi, University of Delhi, 2012, no. 12 (2), pp. 137-150.
28. Madhusudhan M., Bhardwaj R.K. Open access legal information sources and their use by students of National Law University. *Annals of Library and Information Studies*, 2013, no. 60 (4), pp. 314-319.
29. Azizov R.F. Pravovaya informatsiya: teoreticheskie aspekti ponimaniya i osobennosti zakonodatelnogo zakrepleniya [Legal Information: Theoretical Aspects of Understanding and Peculiarities of Legislative Consolidation]. *History of State and Law*, 2007, no. 4, pp. 31-35.
30. Proskurin A.S. Ponyatie pravovoy informatsii kak osnovi informatsionnogo obshestva [The concept of legal information as the basis of the information society]. *Bulletin of the Volgograd State University. Jurisprudence*, 2016, vol. 15, no. 1 (30), pp. 51-57.
31. Kulikova S.A. Informatsionnoe pravo Rossii [Information Law of Russia]. Saratov, Saratov University Publ., 2010, p. 196.
32. Richards R. What is legal information? Proceedings of the Boulder Summer Conference on Legal Information, Scholarship & Teaching At, Boulder, Colorado, 2009, pp. 9-10.
33. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. H harfi [National Encyclopedia of Uzbekistan. The letter H]. Uzbekiston milliy ensiklopediyasi State Scientific Publishing House, Tashkent, 2013, p. 680.
34. Feenan D. Legal issues in acquiring information about illegal behaviour through criminological research. *The British Journal of Criminology*. Oxford University Press, 2002. vol. 42, no. 4, pp. 762-781.
35. Woude V., Maartje B.J. Searching for 'illegal' junk in the trunk: underlying intentions of (cr) immigration controls in Schengen's internal border areas. *New Criminal Law Review*, 2017, vol. 20, no. 1, pp. 157-179.
36. Skurko Y.V. Informatsionno-pravovoe obespechenie zakonodatelnoy deyatelnosti v Rossiyskoy Federatsii [Information and legal support of legislative activity in the Russian Federation]. PhD thesis. 12.00.01. Moscow, RGB, 2003, p. 131.
37. Kulikova S.A. Informatsionnoe pravo Rossii [Information Law of Russia]. Saratov, Saratov University Publ., 2010, p. 196.
38. De Baron M. The spirit of laws. New ed. Transl. by Th. Nugent. Ontario, Canada, Batoche Books, 2001, p. 726.
39. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi [Theory of state and law]. Tashkent, Adolat, 2007, p. 916.
40. Xudoyberdiyev A.Q. Huquq ijodkorligi faoliyatini sotsiologik va ekspert-tahliliy ta'minlashni takomillashtirish [Improving the sociological and expert-analytical support of lawmaking activities]. Doctor's degree dissertation. 12.00.01. Tashkent, IIV Akademiyasi, 2020, p. 258.
41. Sala J., Francisco A. Twitter's road to parliament. ARSP, Archiv Für Rechts-Und Sozialphilosophie. *Archives for Philosophy of Law and Social Philosophy*, 2014, vol. 100, no. 3, pp. 336-346.
42. Najimov M.K. Norma ijodkorligi [Rule-making]. Tashkent, TSUL, 2018, p. 181.
43. Najimov M.K., Saydullayev Sh.A. Qonunchilik texnikasi [Legislative techniques]. Revised Complete 2<sup>nd</sup> Ed. Tashkent, TSIL, 2012, p. 163.

44. Fayziyev Sh.H. Qonun ijodkorligi jarayonini takomillashtirish: milliy va xorijiy tajriba [Improving the law-making process: national and international experience]. Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, Adolat National legal information center, 2020, p. 240.
45. Kudryavsev I.V. Zakonodatelnaya texnika [Legislative techniques]. Tashkent, TSIL, 2009, p. 310.
46. Pavlov P.N. Ekonomicheskie faktori normotvorcheskoy aktivnosti v Rossii [Economic factors of rule-making activity in Russia]. *Issues of State and Municipal Management*, 2019, no. 2, pp. 39-70.
47. Singh A. Data protection: India in the information age. *Journal of the Indian Law Institute*, 2017, vol. 59, no. 1, pp. 78-101.
48. Stefan B. The creation of a Scandinavian provincial law: how was it done? *Historical Research*, 2013, vol. 86, no. 233, pp. 432-442.
49. Abdullayev Q.Q. O'zbekistonda qonun ijodkorligini takomillashtirish muammolari [Problems of improving lawmaking in Uzbekistan]. Tashkent, TSIL, 2013, p. 55.
50. Berdiyarov Sh.N. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik texnikasi [Legislative techniques in a bicameral parliament]. Abstract of PhD thesis. 12.00.01. Tashkent, TSIL, 2009, p. 24.
51. Tulteyev I.T. Pravotvorchestkaya deyatelnost i prognozirovaniye [Law-making and forecasting]. Tashkent, Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2008, p. 310.
52. Shodiqulov O.Z. Yuridik texnika va qonunlar sifatini oshirish muammolari [Problems of improving the quality of legal techniques and laws]. Abstract of PhD thesis. 12.00.01. Tashkent, TSIL, 2011, p. 24.
53. Hayitov X.S. Qonun ijodkorligida ekspertiza o'tkazishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish [Improving the organizational and legal framework for legislative expertise]. PhD thesis. Tashkent, DBA, 2018, p. 298.
54. Rustamov P.A. Nauchno-informatsionnoe obespechenie zakonotvorcheskoy deyatelnosti v Respublike Uzbekistan [Scientific and information support of legislative activity in the Republic of Uzbekistan]. PhD thesis. Tashkent, 2001, p. 149.
55. Mirzaraimov B.T. Huquqiy ong va huquqiy axborot [Legal mind and legal information]. Tashkent, TSIL, 2011, p. 93.



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y.f.d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Ikrom Ergashev**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)

**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)

**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 47.

TDYU tipografiyasida chop etildi.